



XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH - TARAQQIYOT GAROVI

Mirzoxidova Gulchexra Mirzafar qizi

Toshkent moliya instituti

IB-3 guruh magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7466628>

ARTICLE INFO

Received: 10th December 2022

Accepted: 20th December 2022

Online: 21th December 2022

KEY WORDS

Xorijiy investitsiya, investitsiya salohiyat, investitsion jozibadorlik, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya.

ABSTRACT

Maqolada xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bilan bog'liq jarayonlar tadqiq etilgan. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish yo'llari doirasida mavjud kamchiliklar aniqlangan. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish tizimini takomillashtirishga doir ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

KIRISH. O'zbekiston iqtisodiyotini jadal rivojlantirish va ishlab chiqarishda innovatsiyalarni joriy qilish hamda iqtisodiyotda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlashda investitsiyalar, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar beqiyos o'rin tutadi. Investitsiyalarga bo'lgan e'tiborning kuchayishi bugungi kunga kelib, mamlakatimizdagi investitsion faoliyatning rivojlantirilishiga olib keldi. Bu borada erishilgan aniq yutuq va muvaffaqiyatlarning keng va atroflicha tahlili, shu asosdagi muhim amaliy xulosalar, kelgusida e'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan eng dolzarb masalalar orasida mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari va rivojlanish dasturlarini belgilashda, albatta, asosiy e'tibor xorijiy investitsiyalarga qaratilayotganligini ta'kidlash kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya

siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz. Iqtisodiyotdagi ijobiy natijalar esa ijtimoiy sohada to'planib qolgan muammolarni tizimli hal etish imkonini yaratadi. Buni hammamiz chuqur tushunib olishimiz va ishimizni shu asosda tashkil etishimiz shart. Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investitsiya salohiyatini to'la namoyon etish choralarini ko'rishimiz kundalik hayotimizdan joy olgan eng dolzarb masalalardan biri bo'lmog'i lozim" [1], deb ta'kidlab, xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi g'oyat muhim ahamiyatini va uni jalb qilishning dolzarbligini e'tirof etadi.



Mamlakatimiz iqtisodiyotining investitsion jozibadorligini oshirish, mavjud investitsion salohiyatdan samarali foydalanish tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan qator chora tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "Respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4300-sonli Qarorida alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, bu borada respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish faoliyati samaradorligini oshirish, xorijiy investorlarni mamlakatimiz imkoniyatlari va salohiyati to'g'risida xabardor qilish bilan bog'liq vazifalarga ustuvorlik berilgan [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha qator tadqiqot izlanishlari xorijlik iqtisodchi olimlardan C.Liyesbeth, M.Miyet, S.Jo ilmiy izlanishlarida alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilar fikricha, o'tish davri mamlakatlarida iqtisodiyotni liberallashtirish jarayoni to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish tizimini takomillashtirishning muhim omili hisoblanadi. To'g'ridan-to'g'ri kapitalni to'plash va texnologik nou-xau orqali milliy korxonalariga texnologiyalar va bilimlarni jalb qilinishi iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarini ta'minlaydi [3].

P.Mihayela, A.Vaqar, X.Helian tadqiqotlarida milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning institutsional mexanizmi tadqiq etiladi. Tadqiqot natijalariga muvofiq mamlakat iqtisodiyotidagi institutsional sifat o'zgarishlarining to'g'ridan-to'g'ri xorijiy

investitsiyalarni jalb etish tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi [4].

N.G'.Karimov xorijiy investitsion korxonalar uchun makroiqtisodiy, qonunchilik va ma'muriy shart-sharoitlarni va imkoniyatlarni hisobga olgan holda barqaror soliq qonunchiligi tizimini joriy etish hamda iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, dasturini shakllantirish bilan bog'liq jarayonlar tadqiq etiladi [5].

U.S.Nodirxanov o'zining ilmiy tadqiqotlari orqali mintaqaviy darajada investitsiya faolligini oshirish usullari, mintaqalarda investitsiya muhitini baholash, imtiyozli investitsiya loyihalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlovchi qulay investitsiya muhitini shakllantirish jarayonlarini o'rganadi [6].

D.G'ozibekov, E.Nosirov ilmiy izlanishlarida investitsion salohiyatni oshirishda soliq yukini kamaytirish, fond bozorlari o'rnini keskin oshirish, xususiy xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish uchun qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini shakllantirish tadbirlari samarali amalga oshirish bilan bog'liq jarayonlarni tadqiq etiladi [7].

F.U.Umarov tadqiqotlarida iqtisodiyotning tegishli tarmoq va sohalariga xorijiy investitsiya jalb qilish ko'lamini kengaytirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi [8].

A.Burxanov tadqiqotlari orqali hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ilmiy-nazariy jihatlari o'rganilib, hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning muammoli jihatlari asoslangan hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan [9].

Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha yuqoridagi



tadqiqotlarda makroiqtisodiy sharoitlarni yaratish orqali investitsiya jarayonlari va iqtisodiy o'sishning faol sur'atlarini ta'minlash imkoniyatlari o'rganilgan. Investitsiyalari hajmining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar orasida xususiy mulkning yuqori mavqe, raqobat muhitining mavjudligi, to'lovga qobiliyatli iste'mol bozorining o'rni bilan bog'liq jarayonlar tadqiq etilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Maqolada statistik ma'lumotlarni va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotning investitsiyaga bo'lgan talabi, investitsiyaga yunaltiriladigan mablag'larning yetishmasligi investitsiya resurslaridan samarali foydalanishni taqazo etadi. Chunki qo'yilgan kapital mablag'idan samarali foydalanish natijasida ko'proq foyda olish mumkin. Investitsion loyihalarni boshqarish va baholashda ushbu loyihani taklif etuvchi mamlakat-ning moliyaviy-iqtisodiy tahlili zaruriy komponent hisoblanadi. Milliy

iqtisodiyotning investitsiya faoliyatini rivojlantirish va ularni moliyalashtirishni takomillashtirish maqsadida iqtisodiyoti rivojlangan xorijiy davlatlar moliyalashtirish tajribalarini o'rganish takomillashtirib borish va ular amaliyotidagi ijobiy yutuqlardan foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mamlakatimiz iqtisodiyotida investitsiyalarning o'zlashtirilishini samaradorligini oshirishda investitsion muhit bilan bog'liq moliyaviy masalalarni va investitsiya faoliyatini moliyalashtirishdagi muammolar tizimli tartibda hal etib borilmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotida to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlarni rag'batlantirishga yo'naltirilgan faol investitsion siyosat ta'sirida to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar ulushi keskin ortib bormoqda. Xususan, 2017-2021 yillarda to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi qariyb 3,5 barobarga ortdi. Mazkur davrda to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlarning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 50 foizdan yuqori ko'rsatkichni qayd etadi (1-rasm).




1-rasm. 2017-2021 yillarda to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirilishi (mln. AQSH dollar) [10].



O'zbekistonda iqtisodiyotiga jalb etilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari Qandim konlar guruhini o'zlashtirish va zamonaviy gazni qayta ishlash zavodini qurish hisobiga ta'minlandi. Shuningdek, Qo'ng'iro't hududida geologik qidiruv ishlarini olib borilishi, Janubiy-G'arbiy Hisor va Ustyurt hududlarida uglevodorod qazib chiqarish kabi yirik investitsiya loyihalar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan ta'minlandi. 2021 yilda milliy iqtisodiyotga yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi 30149,2 mlrd. so'm o'zlashtirilib, 2020 yilga nisbatan 2,3 % punktga ko'payib, jami investitsiyalarning 20,2 % ini tashkil etdi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ko'payishiga sabab investitsiya muhitining yaxshilanib boryotganidan dalolat beradi. Bozor islohotlarining navbatdagi bosqichida mamlakatimizga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni takomillashtirish masalalarini hal qilish, xorijiy sarmoyasini jalb qilish borasidagi

muammolarni bartaraf etish, xorijiy investitsiyalar hajmini ko'paytirish hamda ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari asosiy vazifalardan biridir. Ana shunday vazifalarning amalga oshirilishi hisobiga 2016-2021 yillar davomida mamlakatimizga jalb qilingan xorijiy investitsiyalarning o'sish sur'atlari ta'minlanayotganligi qayd etilmoqda. Mamlakatimizda TTXI oqimining 2019 yilga nisbatan 0,6 mlrd. AQSH dollariga pasayishi kuzatilib, 2020 yilda 1,7 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. Mamlakatimizda avvalgi yillarda rejalashtirilgan investitsion loyihalar hisobidan va pandemiya sharoitida investitsion loyihalarni amalga oshirayotgan xo'jalik subyektlari hamda tadbirkorlarning hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi natijasida xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi 2021 yilda 4 mlrd. AQSH dollarini tashkil etib, 2020 yilga nisbatan pasayish kuzatildi (2-rasm).



2-rasm. O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar to'g'risida ma'lumot (mlrd. AQSH dollar) [11].

Respublikamiz iqtisodiyotiga jalb etilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar qilinayotgan xorijiy investitsiyalar hajmida miqdori muhim ahamiyat kasb etadi va



aynan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni sug'urta vositasida himoyalash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosiy tendensiyasi va ko'rsatkichlari hamda kelgusi yillarga mo'ljallangan prognozlariga ko'ra ustuvor yo'nalishlardan biri mamlakatimizda, eng avvalo, jalb qilinayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish, xorij investorlari uchun ishonchli kafolatlar yaratish hamda ularning ishonchini mustahkamlash maqsadida yanada qulay investitsiya muhitini shakllantirishdan iborat.

XULOSA VA TAKLIFLAR

So'ngi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatidan ko'zlangan eng asosiy maqsad xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilayotgan korxonalarining mahsulot yoki xizmatlarini eksportga yo'naltirishdan iborat. Buning uchun mahalliy korxonalarimiz negizida tashkil etilayotgan korxonalar faoliyatini yangicha tashkil etish, ulardagi hissbay ishtirok etish, ya'ni aksiyalar ulushiga asosan tomonlarning qaror qabul qilishida ishtirok etish, eng asosiysi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining mahsulot yoki xizmatlarini tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga erishish kabilar muhim ahamiyat kasb etadi. Bizningcha yuqoridagi tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi milliy iqtisodiyotga investitsiya loyihalarni faol jalb etilishiga va investitsiya muhitining barqarorligini ta'minlashga imkon beradi.

Xorijiy investorlarni jalb qilishda turli usullarning qo'llanilishi o'zining samarali mevasini hozirning o'zidanoq bermoqda. Jadal va mutanosib iqtisodiy o'sish, chuqur

tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda faol va aniq yo'naltirilgan investitsiya siyosati yuritish eng muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston o'ziga xos investitsion iqlim yarata oldi hamda bunga mamlakatning resurslarga boy ekanligi va ularni qazib chiqarish, qayta ishlash borasida korxonalarini tashkil etish, mavjudlarini modernizatsiyalash bo'yicha berilayotgan keng imkoniyatlar xorijlik investorlarni kirib kelishiga zamin yaratdi. Shuningdek, muayyan bir tarmoq bo'yicha investitsiyalarning samaradorligini aniqlashda;

- fan, ta'lim va madaniyatni rivojlantirishga qilinadigan investitsiya qo'yilmalari miqdori va sifatini oshirish;

- bazaviy innovatsiyalarni egallashga asoslangan yo'naltirilgan innovatsiya-investitsiya strategiyalarini rag'batlantirish;

- davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi talab etiladigan mavjud ishlab chiqarishlarning texnologik darajalarini, ilmiy imkoniyat-larini, ixtirolarni o'rganish va baholash;

- qulay ishbilarmonlik muhitining shakllantirilishini jadallash-tirish, chunki u o'zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalarini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmi samaradorligini oshirish lozim.

Fikrimizcha, iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish tizimini takomillashtirishda quyidagi vazifalarning amaliy ijrosini ta'minlash maqsadga muvofiq:

- investorlarning qo'yilmalarini davlat tomonidan sug'urtalash, hududlarda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning mavjud shart-sharoitlari va imkoniyatlarini



baholashga yo'naltirilgan dasturiy platformalarni shakllantirish;

- xududlarga investitsiyalarni jalb etish va ularni o'zlashtirishda soliq preferensiyalarini, xududda qolayotgan soliq tushumlari ulushini o'sishida keng imtiyozlar berish bo'yicha normativ bazani takomillashtirish;
- xorijiy investitsiyalarni sanoat tarmoqlarining ichki tarkibini qayta qurish, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda ilg'or texnologiyalarini sifatli sanoat mollari tayyorlashga yo'naltirish vazifalarini amaliy ijrosini ta'minlash;

- investitsiya faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha turli modeli xuquqiy tartibga solish usullaridan foydalanish, investitsion faoliyatga oid qonunchilikni unifikatsiyalashda raqamli investitsion xizmatlar tizimini shakllantirish;
- investitsiya loyihalari uchun xalqaro texnologiyalar transfertini ta'minlovchi davlat-xususiy sherikchilik mexanizmidan foydalanish, investitsion loyihalarni boshqarishning integrallashgan tizimini joriy etishda loyiha risklarini samarali boshqarish tizimini optimallashtirish va boshqalar.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. «Xalq so'zi» gazetasi, 2018 yil 29 dekabr № 271-272 (7229-7230) soni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "Respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4300-sonli Qarori.
3. Liesbeth Colen, Miet Maertens and Jo Swinnen. Foreign direct investment as an engine for economic growth and human development: A review of the arguments and empirical evidence. January 2009 DOI: 10.4324/9780203076880 <https://www.researchgate.net/publication/237244956>
4. Mihaela Peres, Waqar Ameer & Helian Xu (2018) The impact of institutional quality on foreign direct investment inflows: evidence for developed and developing countries, Economic Research-Ekonomska Istraživanja, 31:1, 626-644, DOI: 10.1080/1331677X.2018.1438906 <https://doi.org/10.1080/1331677X.2018.1438906>
5. Karimov N.G'. Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari. – T.: Fan va texnologiya, 2007. – 240 b.
6. Нодирханов У.С. Прямые иностранные инвестиции в Узбекистане: опыт проблемы, перспективы роста. - Т.: "Fan va texnologiya", 2011. 184 б.
7. G'ozibekov D, Nosirov E. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Risola. -T.: "Iqtisod-Moliya". 2007, -B.92
8. Umarov F.U. Innovatsion-investitsiya faol tadbirkorlikning muhim omili. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2018 yil
9. Burxanov A. Hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish-milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashning asosiy omili. Biznes-Ekspert, 2018 yil. №10.,7-13 bet.
10. www.stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
11. www.mift.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.